

AMERIKA AMERIKALIKLAR UCHUN" SHIORINING MOHIYATI VA UNING XALQARO MUNOSABATLARDAGI O'RNI**Ahmadov Sherzod**

1823 yilning dekabrda AQSH hukumati tashki siyosatga doir deklaratsiyani ishlab chiqdi. Bu deklaratsiya o'sha vaqtdagi prezident Monro nomi bilan "Monro doktrinasini" deb atalgan edi¹.

Shuning uchun ham Amerikalik tarixchi Vilyam Vilyams o'z asarlarida Monro doktrinasini va bu doktrinadagi «ochiq eshiklar» siyosati oxirgi yuz yil davomida Amerika tashqi siyosatidagi ekspansionistik dunyoqarashni ifodalashini bir necha marotaba ta'kidlab o'tgan.

«Amerika qit'asi»,- deb ta'kidladi Monro-«hozirgi vaqtda biror bir davlatning kelajakdagi mustamlaka o'ljasi sifatida qaralmasligi lozim».

Monro istalgan Yevropa davlatlarining Amerika qit'asi ishlariga aralashuvini Qo'shma Shtatlar tomonidan unga qilingan dushmanona harakat deb baholashini ochiq ta'kidlab o'tdi.

Monro doktrinasini AQSH tashqi siyosatidagi muhim burilish pallasini edi: tez orada bu doktrinani agressiv va bosqinchilik ruhiyati namoyon bo'ldi.

Monro doktrinasini e'lon qilinishi bilan AQSH Amerika qit'asini «himoya» qilish huquqini o'zlashtirib oldi, ya'ni amalda Lotin Amerikasi davlatlari ichki ishlariga aralashib, bu davlatlarni o'z mustamlakasiga aylantirmoqchi bo'ldi.

Tez orada «Amerika Amerikaliklar uchun» atamasini Vashingtondagi ideologlar, siyosiy arboblardan va targ'ibotchilar «Butun Amerika AQSH imperialistlari uchun» deb targ'ib qila boshladilar. Mashhur Amerikalik siyosiy arbob va Garvard universiteti professori Naum Chomski Monro doktrinasini AQSH tomonidan «G'arbiy yarimshardagi mamlakatlarni erkin talash» bo'yicha bir tomonlama e'lon qilingan deb baholadi.

Amerikalik siyosatshunos Kenet Koleman Monro doktrinasini siyosiy afsona va imperiazizm g'oyasidan tashkil topgan va maqsadi Amerika qit'asida AQSH hukmronligini qonuniylashtirishni nazarda tutadigan hujjat sifatida baholaydi².

«Monro doktrinasidagi siyosiy afsona Amerika imperiazizmi-Gegemonlik bilan bir vaqtda vujudga keldi, shu bilan birga imperiya sifatida qonuniy afsonani yaratilishini talab qiladi... Yangi hududlarni egallab olish bilan afsonalar haqiqatga aylanib boradi: «Biz sening ustingdan hukmronlik qilamiz, chunki bizning hukmronligimiz sening manfaatlaringga xizmat qiladi»... Gegemon tartiblarni o'rnatilishini tasdiqlanishi natijasida afsona ishonch tug'dirishi kerak, ya'ni amalda bo'lgan hukmronlik va qaramlik-ikki tomon uchun ham foydali va asosli bo'lishi, bunga shubha bilan qaragan yoki salbiy munosabatda bo'lganlar yoki gunohkor yoki jinoyatchidir»³.

«Menga Monro doktrinasini borasida ikki narsa ma'lum: birinchidan men uchrashgan Amerikalik siyosatchilar orasida hech kim bu nima ekanligini bilmaydi, ikkinchidan men uchrashgan har bir Amerikalik bu doktrina borasida bahslashishga rozi bo'lmaydi... Men Monro doktrinasini doktrina emas, aqida va aqida bo'lganda ham bir emas ikki aqida: Amerika prezidentlarining aybsizligi va Amerika tashqi siyosatining ilohiy urug'lanishi degan hulosaga keldim». Bu fikrlar ko'p jihatdan Karl Shmitt qarashlariga mos keladi.

1823-yil 23-dekabrda prezidentning nutqi quyidagicha bo'lgan.

Nutqning birinchi qismidagi murojaat Amerikaning shimoli-g'arbiy hududlaridagi ziddiyatlarning kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lib, Amerika materigidagi har qanday Yevropa koloniyasini ta'qiqlar edi. Натихада бу принцип АҚШ ни ўзининг колониялаштириш куралига айланди.

1) Amerika materigida mustaqil rivojlangan davlatlarning mulklari to'liq joy olgan,

¹ Болховитинов Н.Н. Доктрина Монро (происхождение и характер). М., 1959. С.68

² Сборник документов по истории нового времени стран Европы и Америки (1640-1870). Сост. Е.Е. Юровская. М., 1990. С.98

³ Болховитинов Н.Н. Доктрина Монро (происхождение и характер). М., 1959. с. 140

2) AQSH istisno tariqasida shimoli-gʻarbiy Amerika hududiga Ispaniyaning “merosxoʻri” sifatida egalik qilishni qoʻlga kiritdi⁴.

Murojaatning ifodasida oʻsha paytlardagi Yevropa siyosiy tizimi uchun xarakterli boʻlgan monarxiya prinsiplariga milliy qarshilik kayfiyati shubhasiz sezilib turardi. Agar Muqaddas Ittifoq yetakchilari Yevropadagi inqilobiy harakatlarni bostirishga aralashish maqsadida huquqiy tenglikni targʻib qilgan boʻlsa, Monro Gʻarbiy yarim shardagi mamlakatlarning ishiga Yevropaning aralashmasligi gʻoyasi bilan chiqdi⁵.

Bu oʻrinda Monro doktrinasining burjuaziya doktrinasi kabi rivojlanish ahamiyati haqida gapirish mumkin. Burjuaziya xarakteridagi Monro doktrinasi nafaqat toʻsiq boʻlib xizmat qildi, balki undan AQShni oʻzining bosqinchilik manfaatlarini amalga oshirish yoʻlida ham foydalanildi. Monro murojaatining xarakterli tomoni bosqinchilik gʻoyalarining demokratik koʻrinish bilan jamlanganligida edi. Demokratik anʼanalar bilan tarbiyalangan Amerika xalqining kuchi bilan hukmron doiralar oʻzlarining bosqinchilik rejalarini xuddi umummilliy manfaatlarini demokratik tarzda ifodalagandek tantanavor amalga oshirish imkoniga ega boʻldi⁶.

Monro doktrinasining tasdiqlanishi Rossiya va AQSH oʻrtasidagi doʻstona munosabatlarga bir qadar putur yetkazdi. Buning ustiga aynan Monro doktrinasidan keyin rus-amerika kelishuvlari Amerikaning shimoli-gʻarbidagi ziddiyatlarni bir qadar yoʻlga qoʻyishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, tezda muvaffaqiyatli tarzda oʻz yakunini topdi.

Monro doktrinasi Buyuk Britaniya manfaatlariga anchagina taʼsirini oʻtkazdi. Bu vaqtda Rossiya AQShdan Angliyaga qarshi kuch sifatida foydalanishga harakat qilar, Gʻarbiy yarimshardagi munosabatlarda ingliz-amerika ziddiyatlari Rossiya uchun ayni muddao edi (Buyuk Britaniya Yaqin Sharqda Rossiyaning asosiy raqibi edi). Bir tomonlama eʼlon qilingan Monro doktrinasi Kannningning avgustdagi taklifidan keyin oʻzining mohiyatidan chetlashdi va AQSH hamda Angliya oʻrtasidagi qarama-qarshilikni keskinlashtirib yuborib, shimoli-gʻarbiy Amerikadagi ingliz–Amerika hamkorligini barham topishida hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻldi.

Rossiya imperatori hukumati taklifi bilan imperatorning Vashingtondagi doimiy qarorgohga ega boʻlgan vakili orqali Sankt-Peterburgdagi Qoʻshma Shtatlar vakiliga ikki mamlakatning oʻzaro manfaatlaridan chiqib kelgan holda, doʻstona muzokaralar olib borish uchun barcha huquqlar berildi⁷.

"Monro doktrinasi"ning maqsadi gʻarbiy yarim sharda AQShning eʼtiborli mavkeini mustahkamlashdan iborat boʻlib, Ispaniya reaksiyasi va Muqaddas ittifoqning Lotin Amerikasi mamlakatlari ustidan Ispaniya hukmronligini tiklashga qarshi qaratilgan edi.

AQSH prezidenti Jeyms Monro tomonidan Kongressga yuborilgan AQShning dunyoni “Amerika” va “Yevropa” qismlariga ajratish gʻoyasi asosidagi tashqi siyosiy konsepsiya keyinchalik AQSH tashqi siyosiy yoʻnalishlarini belgilab bergan va ularning keyingi davrlarda ham doimiy ravishda oʻzgarib borishini taʼminlagan edi⁸.

Keyingi davrlardagi Amerika tashqi siyosati tarixi Monro doktrinasi tarixi bilan izchil bogʻliq. Amerikalik tarixchi Vilyam Vilyams oʻzining asarlarida Monro doktrinasi va uning asosida tashkil qilingan “ochiq eshiklar” siyosati oxirgi yuz yillikdagi Amerika tashqi siyosatining ekspansion dunyoqarashi borasida taʼkidlashi ham bejizga emas.

⁴ Ширяев Б. А. Внешняя политика США. Принципы, механизмы, методы: Курс лекций. СПб.: Издательство СПбГУ, 2007. С.214

⁵ Сборник документов по истории нового времени стран Европы и Америки (1640-1870). Сост. Е.Е. Юровская. М., 1990. с. 100

⁶ Болховитинов Н.Н. Доктрина Монро (происхождение и характер). М., 1959. С.257

⁷ Болховитинов Н.Н. Русско – Американские отношения.1815-1832. М., 1975. С.264

⁸ Фостер У.З. Очерк политической истории Америки. изд. 2.М. 1995 . С.186

1823-yil 2-dekabrda o'zining Kongressga har yilgi bayonotida AQSH prezidenti Jeyms Monro Amerika qit'asini Yevropa ta'siridan xalos ekanligini e'lon qildi. Prezident qit'a hududiga istalgan Yevropa davlati bo'lajak koloniya sifatida qarashi mumkin emasligi borasida Yevropa davlatlarini ogohlantirdi.

Prezident bayonotining amalga oshirishining real muallifi davlat sekretari Jon Kuinsi Adams bo'lib, uni vujudga kelishining bevosita sababi Janubiy Amerikadagi vaziyat edi. AQShning taniqli davlat arbobi Jon Adamsning o'g'li tomonidan bildirilgan mazkur talab va takliflar keyinchalik nafaqat mamlakatning tashqi siyosiy yo'nalishini belgilab bergan edi, u hatto Yevropa mamlakatlarining AQSH va Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun alohida siyosat olib borishlarini ham ta'minlashga xizmat qilgan edi⁹.

1808-yildagi Napoleonning Ispaniyaga yurishi uning Janubiy Amerikadagi koloniyalari xalqining eskirgan kolonial tuzumga qarshi qo'zg'olon ko'tarishiga sabab bo'ladi. Dastlab o'z yerini fransuzlardan himoya qilishga majbur bo'lgan Ispaniya qiroli Ferdinand VII ning mustamlaka koloniyalarida tezda mustaqillik uchun kurash boshlanib ketadi.

1810-yilda Buenos-Ayresda, Bogotada, Karakasda va Santyago-de-Chilida birlashmalar tashkil qilinadi. 1822-yilda AQSH prezidenti Monro va Kongress qo'zg'olon ko'targan koloniyalarning mustaqilligini tan oladi. Amerikalik tarixchilarning fikricha buning eng ko'zga ko'rinarli tomoni Qo'shma Shtatlar bu qarorga kelishida hech qanday Yevropa hukmronlari bilan maslahatlashmaydi va bu uning keyingi yo'nalishini belgilab beradi¹⁰.

Bu Yevropa ta'siridan holi bo'lgan Amerikacha siyosiy prinsipning shakllanganligidan dalolat berardi. Bu endi shubhasiz Amerika siyosiy doirasining Yevropadan alohida bo'lganligini anglatardi. Ispaniya Amerikasiga Yevropaning yurishi masalasidagi Troppaudagi Muqaddas ittifoq Kongressdagi muhokamasi "Monro doktrinasini" ning dunyoga kelishiga olib keldi. Intervensiya sharoiti bilan bog'liq holda AQSH prezidenti Amerikaning g'arbiy yarim sharda daxlsizlikni saqlash uchun urush e'lon qilishga ham tayyor ekanligini ma'lum qildi. Mavjud yarim sharning har qanday nuqtasida Yevropa hukmronligining tarqalishini Jeyms Monro "bizning tinchlik va xavfsizligimiz uchun tahdid" deb baholadi¹¹.

Ammo "doktrina" ning vujudga kelishida birinchi navbatda hududiy emas AQSH ning iqtisodiy manfaatlarini yotardi. Mashhur Amerikalik diplomat Genri Kissinjerning so'zlari bilan aytganda "Amerika "doktrina" niqobi ostida o'zining maqsadini Yevropa qirollaridan judayam uzoqlashmagan holda amalga oshirishga urinar: savdo ta'sirini kengaytirib, hududlarni qo'shib olar qisqacha aytganda kuch ishlatmasdan turib buyuk mamlakatga aylanib borardi"¹².

Eng ko'zga ko'ringan ko'rsatkichi Yevropaning okean orti ta'siridan amerikaliklarning fikriga ko'ra Qo'shma Shtatlarni anneksiya qilgan mulklaridan xalos bo'lishi edi. Yevropaning uzoq vaqtlar davomida Amerikani ayovsiz koloniyalashtirib kelishiga qaramasdan "doktrina" Yevropa mamlakatlari qo'lidagi imkoniyatlardan foydalanishdan butunlay voz kechmadi va buni huquqiy nom bilan Amerika hududida koloniyalashtirish yoki bosib olishdan holi bo'lgan uslub bilan amalga oshirishga kirishdi. Bu bir tomonlama deklaratsiya kelajakda hech qanday xalqaro huquqiy kuchga ega bo'lmasligining oqibati haqida ham chiqarilmadi.

"Doktrina" e'lon qilinishi bilan Angliya-Amerika-Rossiya birgalikda Shimoliy Amerikadagi chegaralarni belgilash masalasida qizg'in bahslarga kirishib ketdi. Britaniya ichki ishlar vaziri Jorj Kanning tezda "doktrina" ning Rossiyaga qarshi qaratilganligi haqida bayonot berib, uning oqibatida Rossiya va AQSH o'rtasida murakkab vaziyat yuzaga kelishi haqida bashorat qildi.

⁹ Трояновская М.О. Дискуссии по вопросам внешней политики в США (1775-1823). М., 2010. С.186

¹⁰ Фостер У.З. Очерк политической истории Америки. изд. 2.М. 1995 . С.215

¹¹ Трояновская М.О. Дискуссии по вопросам внешней политики в США (1775-1823). М., 2010. С.265

¹² Иванян Э.А. Энциклопедия российско-Американских отношений. XVIII-XX века. М.: Международные отношения, 2001. С.341

Ammo “doktrina” vujudga kelgan vaqtdagi Rossiya va Amerikaning mavjud munosabatlariga hech qanday zarar yetmadi. Rossiya Amerika bilan munosabatlarini Amerikaning Rossiyadagi elchisi Genri Middlton ifodalaganidek “mo‘tadil yaxshilikka intilish” asosida olib borib, bu munosabat ingliz-rus munosabatlaridan ko‘ra yengilroq ekanligini ko‘rsatib berdi¹³.

1823-yilda e‘lon qilinishi kerak bo‘lgan “doktrina” amalda foydalanishigacha yana yigirma yil kutishga to‘g‘ri keldi. Uning Yevropada mavjudligi prezident Jeyms Polk AQSH va Meksika o‘rtasidagi ziddiyat oldidan va Fransiya hamda Angliyaning Kaliforniyani AQShga qo‘shishni talab qilganlikda, ularni Amerika hududida yo‘ldosh tashkil qilishga harakat qilayotganlikda ayblab o‘zining 1845-yildagi Kongressga yuborgan birinchi bayonotida esga oladi.

Aynan mana shundan keyin “Monro doktrinasini” ning “yulduzli davri” boshlanadi. 1904-yilda Rossianing AQSH dagi elchisi Artur Kassini Sankt-Peterburgga xabar qiladi: “federal hukumat garchi Monro doktrinasini haqida olamga jar solayotgan bo‘lsada, ammo uning prinsiplarini faqat o‘zining foydasi uchun qabul qilmoqda. Amerika materigiga tegishli bo‘lgan har qanday hodisaga aralashishga hech kimga ruxsat bermayapti, shu bilan bir vaqtda u Yevropa va Osiyoga tegishli bo‘lgan masalalarga ham aralashishga harakat qilmoqda. G‘ayri ixtiyoriy ravishda o‘zimga u bizga kelajakda qanday syurpriz tayyorlab qo‘ygan degan savolni berdim”¹⁴.

Monro doktrinasini AQSH tashqi siyosatida chuqur o‘zgarishlar yuz berayotgan vaqtda vujudga keldi: bu doktrina birdaniga tajovuzkor va bosqinchilik mohiyati namoyon bo‘la boshladi. Monro doktrinasining e‘lon qilinishi bilan AQSH o‘ziga Amerika materigini “himoya qilish” huquqini berdi va bu bilan Lotin Amerikasi ishlariga aralashib undagi davlatlarni o‘zining protektoratiga aylantirib bordi.

Monro doktrinasining mohiyatini nemis yetakchi huquqshunosi Karl Shmit quyidagicha ta’kidlaydi bu tortib olish va vositalarni g‘ayri qonuniy o‘zlashtirish jarayonidir.

Amerikalik politolog Kenet Kolemaning ta’kidlashicha Monro doktrinasini g‘oyaviy munosabatdan imperializmning siyosiy mifologik va ideologik jihatlarini namoyon qilib, asosiy maqsad AQSH hukmronligini Amerika materigida qonuniy jihatdan asoslab berishi kerak. “Monro doktrinasini” AQShning g‘arbiy yarim sharda o‘zining zo‘ravonligini ta’minlash uchun imkon berar edi. Keyinchalik “Monro doktrinasini” dan o‘sha vaqtda hukmronlik qilgan quldor guruhlar 1844-1848 yillarda Meksikaga qarshi olib borilgan talonchilik, bosqinlik urushini oqlash maqsadida foydalandilar. Meksika tarkibiga kirgan Texas shtati masalasida chiqqan janjal shu urushning sabablaridan biri bo‘ldi¹⁵.

1847 yil fevralda AQSH hukumati Kaliforniyani anneksiya qilganligini e‘lon qildi. 1847 yil martida AQSH qo‘shinlari Verakruzga kelib tushdi. 1847 yil 14 sentabrda ular Meksika armiyasini tor-mor keltirib, Meksika poytaxti Mexiko shahriga kirdilar¹⁶.

1846 yilda Pensilvaniyalik demokrat David Vilmot Meksikadan AQShga qo‘shib olinadigan territoriyalarning hammasida qulchilikni taqiqlash to‘g‘risidagi Konstitutsiyaga tuzatish kiritishni taklif qildi. Vilmot taklifi vakillar palatasidan o‘tgan bo‘lsada, ammo senat uni rad etdi, turli prezidentlar yevropaliklardan Yukatan va Meksikani chegaralash uchun Texas, Kaliforniya, Oregonni bosib olishda, shuningdek savdo va dengizda suzishni nazorat qilish uchun Markaziy Amerikada kanal qurishda Monro doktrinasidan foydalanishdi. Prezident Klivlend esa Angliya va

¹³ Иванян Э.А. Энциклопедия российско-Американских отношений. XVIII-XX века. М.: Международные отношения, 2001. С.341

¹⁴ Фостер У.З. Очерк политической истории Америки. изд. 2.М. 1995 С.256

¹⁵ Ширяев Б. А. Внешняя политика США. Принципы, механизмы, методы: Курс лекций. СПб.: Издательство СПбГУ, 2007. С.196

¹⁶ Хрестоматия по истории Нового времени стран Европы и Америки. сост. Д.В. Кузнецов. В. 2 часть. Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2010. С.261

Venesuela 1895 yilda yer masalasi bo'yicha bahsda bitim tuzishga majbur qilgan vaqtda Monro doktrinasidan foydalandi¹⁷.

“Monro doktrinasini” shunchaki AQSH ning tashqi siyosiy bayonnomasi emasdi. “Monro doktrinasini” ning ahamiyati shunda ediki, AQSH tashqi siyosatda ko'plab o'n yilliklar davomida amalda foydalanib keldi. “Monro doktrinasini” ning vujudga kelishi natijasida AQShning nafaqat ichki qonunlar, iqtisodiy tendensiyalar va ichki siyosati rivojlandi, balki xalqaro munosabatlarning rivojlanishi bilan bog'liq holda 1823-yilning oxiridan AQSH ning amaliy va nazariy tashqi siyosati va diplomatiyasining timsoliga aylandi.

AQShning bosqinchilik nazariyasi va milliy burjuaziyasining rivojlanishi XIX asrning 20-yillarida yuzaga kelishi bilan bog'liq holda boshlanadi.

Bosib olish va milliy burjuaziya g'oyasi AQSH tarixining oldingi davrlarida yuzaga kelgan bo'lib, yosh respublika rahbarlari uchun AQSH uzoqni ko'zlagan yo'lni tanlagan mamlakat sifatida namoyon bo'ladi.

AQShning G'arbiy yarim sharda o'zining gegemonligini o'rnatishga intilishi bu vaqtda endi na Yevropaga, na Amerikaga sir emasdi. AQSH hukumatidagi bir qadar xavfsirashning mavjudligi va o'zining nufuzini orttirishga intilishi Muqaddas ittifoqning oxirgi kongress va konferensiyalarida bayon qilingan edi.

Inglizlarga qarshi an'analar bilan bir qatorda Amerika bosqinchilarining dunyoqarashi “haqiqiy chegaralar” nazariyasiga o'zining ta'sirini ko'rsatdi. Ekspansiyachilar o'zgartirgan sharoitlarga bog'liq holda AQSH hozirgi yoki keying hududlarni “haqiqiy chegaralar” hududiga kiritishni talab qildi¹⁸.

“Monro doktrinasini” ning rivojlanishi uchun “Amerika tizimi” katta ahamiyatga ega bo'ldi. Keyinchalik bu konsepsiya o'z davri uchun qator ijobiy va rivojlantiruvchi holatlarni yaratib berdi. Shimoliy Amerikaning yosh burjuaziyasi Yevropa qaramligidan va uning siyosiy tizimidan holi ravishda tez rivojlanib bordi. T. Jon yozadi: “Amerika o'zining yarim shariga ega. U o'zining alohida manfaatlar tizimiga ega bo'lishi lozim va Yevropa manfaatlariga bo'ysinmasligi shart”¹⁹.

AQSH davlat arboblari o'zlarining shaxsiy manfaatlari yo'lida “a s” g'oyasining tarqatilishi ustidan rahbarlik qildilar. Monro doktrinasini qator tartibotlar qo'shilganida keyin AQShning bosqinchilari o'rtasida Lotin Amerikasi xalqlari bilan munosabatda mensimaslik g'oyasi keng tarqaldi. “AS” g'oyasi konsepsiyasini to'liq ko'rinishda Genri Kleyem 20-yillarda rivojlantirdi.

“Bizning kuchimiz tizimni tashkil qiladi, markaz biz bo'lamiz va butun Janubiy Amerika biz bilan birga bo'ladi. Bizning davlat jahon savdosining markazi bo'ladi”.

Monro doktrinasini bu tendensiyani g'oyaviy jihatdan nihoyasiga yetkazdi. Monro doktrinasidagi rasmiy dasturlarni yuzaga kelishi AQSH tashqi siyoastining amaliyoti va nazariyalariga xizmat qilib, AQSH milliy burjuaziyasi va ekpansiyachilarini g'oyaviy jihatdan rivojlantirdi. Bu nazariya uzoq va mashaqqatli yo'ldan o'tib, prezident Monroning 1823-yil 2-dekabrdagi Kongressga murojaati bilan nihoyasiga yetkazildi. Umumiy g'oya bilan tarbiyalangan eski avlod vakillaridan 20-yillarning boshlarida Adams, Kleyem va boshqalar yetishib chiqdi. Bularning hammasi yangi sharoitlardagi birinchi lohiyalar bo'lib, AQSH ning navbatdagi tashqi siyosiy amaliyoti vazifalarini amalga oshirishga intilib, bu Amerika diplomatiyasida o'zining amaliy ifodasini topgan edi²⁰.

¹⁷ Ширяев Б. А. Внешняя политика США. Принципы, механизмы, методы: Курс лекций. СПб.: Издательство СПбГУ, 2007. С.248

¹⁸ Хрестоматия по истории Нового времени стран Европы и Америки. сост. Д.В. Кузнецов. В. 2 часть. Благовещенск: Изд-во БПУ, 2010. С.331

¹⁹ Ширяев Б. А. Внешняя политика США. Принципы, механизмы, методы: Курс лекций. СПб.: Издательство СПбГУ, 2007. С.68

²⁰ Ширяев Б. А. Внешняя политика США. Принципы, механизмы, методы: Курс лекций. СПб.: Издательство СПбГУ, 2007. С.95

Buyuk Britaniyaning tashqi ishlar vaziri J. Kanningning Londondagi Amerika elchisi R. Rashga 1823-yil avgust oyida Ispaniyaning Amerika materigidagi sobiq koloniyalari masalasida birgalikda harakat qilish haqidagi maxfiy taklifi ulkan ahamiyatga ega bo'ldi. U Amerika va Yevropaning qarama qarshi bo'lib qolishidan xavfsirar va bunday rivojlanish AQSH uchun juda qulay ekanligini yaxshi tushunar edi.

1823 yilda qabul qilingan doktrina bir necha bosqichda AQSH tashqi siyosatida alohida o'rin egallagan. Uning bosqichlari AQShning tashqi siyosiy faolligi va hududlarga nisbatan siyosatining o'zgarib borishi bilan ham izohlanadi.

Monro doktrinasi 1823-yilgi e'lon qilingan vaqtdan boshlab, Amerikaning Katta maydonda, ya'ni G'arbiy yarim shardagi gegemonligining mustahkamlanib borishi kuzatildi. Bu AQShning G'arbiy yarim shardagi ustunligining boshlanishi bo'lib, uning ahamiyati Amerika materigi mamlakatlarining iqtisodiy va siyosiy jihatdan asoratga tushib qolishida edi²¹.

Ikkinchi bosqich XIX asrning 80-yillaridan boshlanib, Amerika gegemonligining kengayishi, tizimlashuvi va mutlaqlashuviga qadar davom etdi. Lotin Amerikasi davlatlari AQSH ning protektoratiga aylanib borishdi, material suverenitetligidan mahrum bo'lib, uning faqatgina belgilarinigina saqlab qolishdi²².

1895-yildagi "Forum" jurnalida nashr qilingan maqolada senator Loj Rio-Grandadan Shimoliy muz okeanigacha yagona bayroq ostida birlashishi lozim deb bayonot berdi.

Bu davr haqida Teodor Ruzveltning yaqin do'sti U. A. Uayt shunday yozadi: "Ispanlarning Kubada taslim etilishi bizga Puerto-Riko va Filippinni egallash imkonini yuzaga keltirdi, Amerika jahonga xo'jayinlik qilish yo'lida uchragan barchani surib tashlamoqda. Yer sharida Amerika imperializmi yuzaga keladi. Yangi hayot tarzini biz belgilaydigan bo'lamiz".

Karl Shmitning so'zlariga ko'ra Monro doktrinasi "Amerika materigini tark etib, mintaqaviy hukmronlik prinsipidan jahon doktrinasiga aylanishi" vositasida dunyoviy hukmronlikni o'rnatadi. Karl Shmit o'zining Grossraumgegen Universalismus (Universalizmga qarshi Katta maydon) asarida ta'kidlaganidek prezident Vudro Vilson 1917-yil 22-yanvarda Monro doktrinasini butun dunyo va insoniyat uchun universal prinsip ekanligini e'lon qilish bilan birga AQShning dunyoga hukmronligini ham talab qilib chiqdi. Vudro Vilson uchun Monro doktrinasi butun dunyo va Yangi olam uchun tartibot bo'lib xizmat qilardi²³.

AQSH birinchi jahon urushidan keyin dunyoviy hukmronlikni o'rnatishni uddasidan chiqqa olmadi. Biroq, Monro doktrinasi Millatlar Ligasi ustaviga 21-modda sifatida kirdi²⁴.

Bu esa xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan hujjatni xususiyatiga putur yetkazib G'arbiy yarim sharda AQSH tomonidan tuzilgan mustamlaka imperiyasini o'z bo'ynidan soqit qildi. Bekorga Karl Shmitt Monro doktrinasini Millatlar Ligasi ustavida aks ettirilishi Yevropaning AQShdan mag'lubiyati va 1648 yil Vestfal sulhi va 1815 yildagi Vena kongressidan keyin amalda bo'lib kelgan xalqaro huquqning buzilishi deb aytmagan edi.²⁵

Doktrinaning ma'naviy g'oyasiga qararak "taqdir tomonidan belgilangan" degan g'oyasini "odamlarning qiziqishini birlashtirish" degan muqova bilan o'rab, Vilson Millatlar ligasiga "Amerikancha dunyo" ni shunday ta'rifladi: "Amerika dunyoning yetakchi davlatiga aylandi...Biz faqat bitta masalani ko'rishimiz kerak: bizni boshqarishdan bosh tortishga haqqimiz bormi,

²¹ Хрестоматия по истории Нового времени стран Европы и Америки. сост. Д.В. Кузнецов. В. 2 часть. Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2010. С.423

²² Хрестоматия по новой истории. Часть 1. 1642-1870. Под ред. А.И. Молока и В.А. Орлова. М., 1958. С.222

²³ Хрестоматия по новой истории. Часть 1. 1642-1870. Под ред. А.И. Молока и В.А. Орлова. М., 1958. С.342

²⁴ Фостер У.З. Очерк политической истории Америки. изд. 2.М. 1995. С.218

²⁵ Хрестоматия по истории Нового времени стран Европы и Америки. сост. Д.В. Кузнецов. В. 2 часть. Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2010. С.86

dunyoning ishonchini qabul qilamizmi yo yo‘q... Hammasi tayyor, taqdirning o‘zi bizga yo‘l ko‘rsatmoqda. Bular, odamzod qo‘llari yaratgan reja asosida bo‘lmadi, bizni xudo boshlamoqda. Biz chekina olmaymiz. Biz faqatgina tetik ruh bilan, qaddimizni rostlab oldinga harakatlanmog‘imiz darkor. Taqdir Amerikaga haqiqiy yo‘lni ko‘rsatishi bitilgan”²⁶.

“Prezident, Vilsonning tinchlik konferensiyasidagi nutqini kulimsirab eslagan Buyuk Britaniya bosh vaziri Lloyd-Jorj, o‘zini missionerdek ko‘rsatib, bechora Yevropa g‘ayridinlarini qutqarish uchun yuborilganiga ishontirishga harakat qildi... “Nega? -dedi Vilson, Iso Masih dunyo uning ta‘limiga ishontirish qo‘lidan kelmadi? Negaki, u ta‘limining yaxshi tomonlarini ko‘rsatdi, lekin, ularga erishishning yo‘llarini ko‘rsatmadi. Men sizlarga amalga oshadigan reja taklif qilaman, Isoning harakatlarini oxiriga yetkazmoqchiman.” “Klemanso (Fransiya bosh vaziri) qora ko‘zlarini katta ochib atrofda qilargana, xristianlarning xudosi qay tariqa kuchsizligini namoyon qilishayotganiga qaratdi”²⁷.

Vilson haqida Klemanso ham kulimsirab yozgan: “Xudo bizga 10 ta amr tayinlagandi biz uning hammasini buzdik. Vilson bizga 14 ta bob taklif qildi nima ham deyman, o‘lmasak ko‘ramiz” “Vilson bilan suhbatlashish Iso bilan suhbatlashishday”²⁸.

Britaniyalik diplomat Garold Nikolson, Parijdagi tinchlik konferensiyasining Buyuk Britaniya delegatsiyasi a‘zosi, birinchi jahon urushidan so‘ng Vilson haqida quyidagilarni yozgan:

“Shuni tan olishim kerakki, prezident Vilson juda tor dunyo qarashga ega... Uning xarakteri va siyosatani tushunib bo‘lmaydi, agar uning akademik g‘oyalarini yemirayotgan va vayron qilayotgan tassavvuf fanatizmini hisobga olmasak. Uning 13 raqamiga ishonishi tasavvuf sindromi, aks hollarda kasallikday ko‘rinishga ega bo‘lardi... Aksariyat hollarda unga milliardlab qarab turgan ko‘zlar uni G‘arbda paydo bo‘lgan payg‘ambarday, xudoni o‘zi yorlaqagan bandaday, dunyoga yangicha qarash va yangiliklar ochadiganga qaraydiganday tuyilardi.

“Tan olamanki, albatta, Vilsonning “odamzodning aqlidagi vijdoniy yondashuvi” haqidagi gaplari bir nechta hafta o‘tgandan keyin, hech kimni hayratga solmasdan, ishonarsiz bo‘lib eshiltildi. Tan olaman, payg‘ambarday amerikaliklarday va uning falsafasi yagona qo‘llanilgan joy bu G‘arbiy yarim shardagi Amerikaning qudratiga qaratilgan”²⁹.

“Vilson kelajakni shunday tasavvur qilgan: Amerikaning vakili Millatlar ligasi tribunasi chiqib, foliga tayanadi, va dunyo Qo‘shma Shtatlar oldida bosh egadi, - deb tasvirlab berdi. AQSH birinchi jahon urushiga yagona bitta maqsad bilan qo‘shilgan, bu Amerikaning ko‘zbo‘yamachilik “ochiq eshiklar” siyosatini kengaytirish, himoyalash va o‘rnatish edi.”³⁰

XIX asr AQSH tarixiga G‘arbiy yarim sharda gegemonlik o‘rnatish davri bo‘lib kirdi. Bu strategiyaning asosi panamerikanizm bo‘lib, umumiy tarixiy jarayonlarga asoslangan va yana Amerika qit‘asidagi “Monro doktrinasi” dan o‘rin olgan barcha davlatlarning iqtisodiy va tashqi siyosiy manfaatlarini ifodalardi.

“Monro doktrinasi” ning mantiqan davom etishi g‘oyaviy jihatdan bo‘lib, kolonial bosqinchilikka, hududiy ekspansiya va umumiy tajovuzga asoslangan doktrinani admiral Menxen “dengiz kuchlari” deb nomladi. Geopolitik doktrina bo‘lgan “dengiz kuchlari” nafaqat oxirgi anglo-Amerika geopolitikasiga ta‘sir ko‘rsatdi, balki Amerika geopolitikasining g‘oyaviy o‘zagiga aylandi.

“Dengiz kuchlari” doktrinasi Mexen tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u 1890-yilda Bostonda birinchi nashrdan chiqqan “1660-1783-yillardagi dengiz qudratining ta‘siri tarixidan” asariga asoslangan edi. Britaniya va Fransiya harbiy kemalarining ancha ilgari qilgan harakatiga tegishli bo‘lgan bu tarixiy material Mexenga imperialistik g‘oyalarining kelajagi uchun asos bo‘lib xizmat

²⁶ Хрестоматия по новой истории. Часть 1. 1642-1870. Под ред. А.И. Молока и В.А. Орлова. М., 1958. С.295

²⁷ Фостер У.З. Очерк политической истории Америки. изд. 2.М. 1995 . С.241

²⁸ Хрестоматия по новой истории. Часть 1. 1642-1870. Под ред. А.И. Молока и В.А. Орлова. М., 1958. С.231

²⁹ Григорьева И.В. Новая история стран Европы и Америки. Начало 1870-х годов - 1918 . М. 2001. С.89

³⁰ Фостер У.З. Очерк политической истории Америки. изд. 2.М. 1995 . С.253

qildi. Imperialist butun vujudi bilan “dengiz qudrati” tezisini asoslashga harakat qilib keldi, bunda imperialistik davlat bosqinchilik, dengizdagi tajovuzkor urushlarga kirib, o‘zining milliy taqdirini belgilab oldi³¹.

Amerikaning Shimoliy Amerika qit‘asidagi bosqinchilik davri Yevropada 1815-yildagi Vena Kongressida o‘rnatilgan tinchlik davri bilan deyarli bir vaqtga to‘g‘ri keldi. Yevropa siyosiy tarixidagi dalillarga muvofiq solishtirganda Amerika Yevropaning ishlariga aralashmaslik va bir vaqtning o‘zida Yevropa ham G‘arbiy yarim shardagi voqealarga aralashmaslik siyosati XIX asrda kuchlar muvozanatini AQSH foydasiga xizmat qilishiga olib keladi³².

Ajoyib geografik sharoitda joylashgan Yangi dunyodagi AQShning ushbu strategiyasi ikki okean orasidagi dunyoning qolganlaridan ajratib olishiga imkon yaratdi. Yevropa davlatlari o‘zlarining muommolarini hal qilishiga katta e‘tibor qaratib qolishiga qattiq ishongan Amerika o‘zining muommolarini Yevropaning aralashuvisiz hal qilishga qaror qildi. Buni hatto AQSH 1917-yilda Birinchi jahon urushiga kirgan vaqtda ham biror bir harbiy ittifoqqa a‘zo emasligida ko‘rish mumkin edi. Bu mamlakatdagi izolyutsionizmning joriy qilinishi uning vaqtlar o‘tishi bilan Ikkinchi jahon urushigacha jahonda yetakchilikni qo‘lga olishida muhim ahamiyat kasb etib keldi.

AQSH hukmron doiralarning bosqinchilik siyosatini yuritishga intilishi asosan uning Lotin va Markaziy Amerika, yana Tinch okeani havzasi va Sharqiy Osiyo bilan munosabatlaridagi tashqi siyosiy strategiyasi bilan bog‘liq edi. Sharqiy Osiyodagi, eng avvalo Xitoydagi iqtisodiy bosqinchilikda “ochiq eshiklar siyosati” doktrinasini muhim vosita vazifasini bajarib berdi.

U “Monro doktrinasini” va admiral Mexenning konsepsiyasining g‘oyaviy davomi hisoblanardi. Mohiyatan bu doktrina barcha mamlakatlar taqdim qilgan va AQSH mintaqa uchun teng savdo imkoniyatlari va sharoitlarini talab qilishi asosida tashkil qilingan edi. 1880-yilda Gavaya orollarini o‘ziga bo‘ysindirgan Amerika o‘zining Osiyoga dengiz yo‘li orqali chiqishi uchun juda qulay geografik hududni egallagan edi. 1887-yilda Amerikaliklar Gavaya orollarida o‘zlarining harbiy bazasi Perl-Xarborni tashkil qilib, AQSH ning Tinch okeanidagi harbiy-siyosiy bosqinchiligi uchun juda muhim nuqtasiga ega bo‘ladi³³.

AQSH davlat boshliqlari siyosatining mohiyati haqida, uning maqsadlari borasida muhokama qilganda, uning 1898-yildagi Amerika-Ispaniya urushini yuzaga keltirishga intilganligini ta‘kidlash kerak. Bu maqsadlardan biri bu vaqtga kelib ancha zaiflashib qolgan Ispaniya imperiyasiga oxirgi hal qiluvchi zarbani berib, Lotin Amerikasida mustahkamlanib olish bilan bir vaqtda uning boshqa mulklariga bo‘lgan ta‘sirini oshirishdan iborat edi³⁴.

Urushning sababchisi Kuba bo‘lib, u Lotin Amerikasining Karib dengizi havzasida joylashgan, Filippin esa Tinch okeanidagi muhim strategik o‘rinni egallagan edi. Urush 1898-yil 10-dekabrda Parij tinchlik shartnomasining imzolanishi bilan yakunlanib, unga ko‘ra AQSH Ispaniyani Filippindan, Antil arxipelagidagi Puerto-Rikodan va Tinch okeanidagi Guamdan mahrum qildi.

1904-yildagi Ruzveltning Monro doktrinasiga qilgan qo‘shimchasi Amerika chegaralarining mutlaqo kengayib ketishiga eng asosiy sabab bo‘ldi. Va nihoyat Vilson universalizmi “chegara tezi” va “ochiq eshiklar” doktrinasini jahon arenasini miqyosiga olib chiqdi. Terner Qo‘shma Shtatlarning belgilangan geografik makonga ega emasligi borasidagi da‘vo bilan chiqdi³⁵.

Amerika bosqinchilik siyosatining keyingi bosqichi Panama bo‘lib, bu yer okeanlar o‘rtasida kanal qurish uchun tanlangan edi. Kanal qurilishi 1914-yilda nihoyasiga yetgan bo‘lsada, uning ishga tushirilishi faqat Birinchi jahon urushidan keyin amalga oshirildi.

³¹ Трояновская М.О. Дискуссии по вопросам внешней политики в США (1775-1823). М., 2010. С.135

³² Иванян Э.А. Энциклопедия российско-Американских отношений. XVIII-XX века. М.: Международные отношения, 2001. С.341

³³ Очерки новой и новейшей истории США. Т. 1. М., 1960; С.258

³⁴ Трояновская М.О. Дискуссии по вопросам внешней политики в США (1775-1823). М., 2010. С.219

³⁵ Трояновская М.О. Дискуссии по вопросам внешней политики в США (1775-1823). М., 2010. С.148

Birinchi jahon urushining yakunlanish davrida “oldindan belgilangan taqdir”, Monro doktrinasini va “ochiq eshiklar siyosati” Vilson universalizmi bilan mustahkamlandi³⁶.

Birinchi jahon urushidan keyin AQSH dunyoga hukmronligini oʻrnata olmadi. Lekin Monro doktrinasini Millatlar ligasiga 21-band sifatida kiritilib, nafaqat xalqaro tashkilot haqidagi mish-mishlarga nuqta qoʻydi, balki uning Gʻarbiy yarim sharda kolonial imperiyani tashkil qilishi borasidagi huquqiy taʼsir doirasini ham inkor qildi, ammo uning oldida xalqaro huquqlar hukmronligi yuzaga keldi³⁷.

“Hamma shu haqda gapirardi” deb taʼkidlaydi ingliz geopolitigi D. Sloun, “Ikkinchi jahon urushining tugashi bilan Ruzvelt Mikkenderning geopolitik markaziy konsepsiyasi bilan Yevroosiyo materigi ustidan nazorat oʻrnatishning ahamiyati haqida fikr yurita boshladi”³⁸ deydi u.

“Monro doktrinasini” ning tashqi siyosatdagi gʻoyaviy davomi G. Kissinjerning tashqi siyosati boʻldi. uning qarashlari Richard Nikson prezidentligi davrida katta ahamiyatga ega boʻlib, u bu vaqtda davlat sekretari lavozimida edi va Amerika Qoʻshma Shtatlarining tashqi siyosatida sezilarli rol oʻynar edi. Shunday qilib umumlashtiruvchi xulosalarni chiqaramiz. 1823-yil AQSH ning beshinchi prezidenti Jeyms Monro doktrinani ishlab chiqdi va bunga AQSH ning muhim hayotiy manfaatlari uchun butun Yangi dunyoni koʻndirdi. Bu doktrina tarixga “Monro doktrinasini” sifatida kirib, AQSH ning XIX-XX asrlardagi koʻplab harbiy va siyosiy tadbirlari uchun asos boʻlib xizmat qildi.

“Monro doktrinasini” vaqt oʻtishi bilan bir necha bor rivojlantirildi va oʻzgartirildi. “Monro doktrinasini” ning ortidan “Tayler doktrinasini”, “Polk doktrinasini” vujudga keldi. Keyinchalik “Monro doktrinasini” ga “Bleyn ilovasi”, “Olniya ilovasi”, “Loj ilovasi” va boshqa doktrinalar yordamida tuzatishlar kiritilib, bular AQSH ning XIX asrning ikkinchi yarmidagi gossekretarlar nomi bilan bogʻliq edi³⁹.

“Monro doktrinasini” AQShning Gʻarbiy yarim shardagi bosqinchiligining asosi boʻlib, undan AQSH prezidentlari Teodor Ruzvelt, Uilyam Govard Taft va Tomas Vudro Vilsonlar foydalangan va uni rivojlantirgan⁴⁰.

Monro doktrinasining rivojlanishida avval AQShning Lotin Amerikasi ustidan hukmronligini oʻrnatish prototiplari koʻzga tashlanadi va keyinchalik bu prototiplarni boshqa davlatlarga nisbatan qoʻllash, AQSH uchun uning chegaradan keyin ham «Dunyoning yangi tariblari»⁴¹da siyosiy va yuridik asos boʻlib xizmat qiladi.

Bu prototiplar Monroning doktrinasiga AQShning ustunligini oʻrnatish uchun qoʻshimcha tarzida kiritilganligi, Olnining AQShning hohishi Lotin Amerikasining qonuni boʻlishi kerek degan qoʻshimchasida, Plattning Amerika protektoratini mustahkamlashga qaratildi va 1904-yilda Ruzveltni, AQShning hohishi Amerika qitʼasi yagona xalqaro huquq manbasi boʻlishi kerak.

Yangi xalqaro huquqning manbasi sifatida qitʼaning boshqa davlatlari bilan tuziladigan koʻp tomonlama akti emas, balki, AQShning hohishi bitilgan bir tomonlama akt boʻlishini xohlagandi. Boshqacha aytganda bu xalqaro huquqda AQShning hohishlari aks etilib, bu bilan tarixda AQShning gʻarbiy qitʼadagi ustunligi osonlashtirib va qonuniylashtiribgina qolmay, balki, Karl Shmit soʻzlariga asosan, xalqaro huquqda dualizmni yaratish, oxir-oqibat, Millatlar ligasini dualizmni “qonunlashtirish”gandan soʻng, bu dualizm oʻzining nizomiga Monro doktrinasining tarqalishiga olib kelar edi⁴².

³⁶ Очерки новой и новейшей истории США. Т. 1. М., 1960; С.286

³⁷ Трояновская М.О. Дискусии по вопросам внешней политики в США (1775-1823). М., 2010. С.269

³⁸ История США. В 4 т. Под ред. Г.Н. Севастьянова. М., 1983. Т.1-2. С.243

³⁹ История США. В 4 т. Под ред. Г.Н. Севастьянова. М., 1983. Т.2. С.52

⁴⁰ Киссинджер Г. Дипломатия / Пер. с англ. М., 1997. С. 26.

⁴¹ История США. В 4 т. Под ред. Г.Н. Севастьянова. М., 1983. Т.2. С.86

⁴² История США. В 4 т. Под ред. Г.Н. Севастьянова. М., 1983. Т.2. С.89

Ruzveltning Monro doktrinasiga qo‘shimchasida intervensiyani yuridik qurol hamda mafkuraviy himoyaga aylantirgan, AQSH esa o‘zlariga berilmagan “G‘arbiy yarim shar politsiyasi” rolini o‘zlariga oldilar, o‘zining qudratini hohishiga ko‘rsatib, bu yoki u Amerika davlati mustaqil ravishda faoliyat yuritishini hal qiladigandek, intervensiyani tushuntirish uchun, T.Ruzvelt chet eldaligida Amerikaliklarni ham huquqlarini himoya qilish haqida tezisini olg‘a surdi⁴³.

1885-yildan 1905-yilgacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida Amerika ustunligining huquqiy doktrinasini shakllanib, hamda Amerikaning katta maydoni tashkil topdi, deb ta’kidladi Amerikaning mashhur tarixchisi Valter Lafeber. “Monro doktrinasini Ruzvelt doktrinasiga aylantirib bo‘lgandi, u Monro doktrinasiga qo‘shimchi kiritilgan yana bir doktrina emas edi. AQShning targ‘ibot-tashviqot ishlarida hamda afsonalashtirilgan manba sifatida Monro doktrinasini ko‘rsatishiga qaramay, shundan buyon Ruzvelt doktrinasini AQShning xalqaro siyosati kuchining asosiga aylangandi”⁴⁴.

G‘arbiy yarim sharda demokratik davlatlarga, faqatgina AQShni hukmronligini tan olgan, o‘zining iqtisodiy eshiklarini Amerika monopoliyasi uchun ochib turganlar kiradi. AQSH hukmronligini tan olmagan davlatlar, demokratik davlat bo‘la olmaydi va AQSH ularga qarata “politsiyacha” siyosatini qo‘llashi mumkin⁴⁵.

G‘arbiy yarim sharda Amerikacha imperiya tuzish va shu imperiyani boshqarishda AQSH hukmronligini o‘rnatish, Shmit ayganiday katta joy (Grossraum), qarama-qarshilikdan tashkil topgandi, ya’ni: Lotin Amerikasi davlatlarining suvereniteti va chegaralari dahlsizligining buzilishi, AQShning hohishlarini “Xalqaro huquq” borasida yagona manba bo‘lishidir.

⁴³ Трояновская М.О. Дискуссии по вопросам внешней политики в США (1775-1823). М., 2010. С.97

⁴⁴ Киссинджер Г. Дипломатия / Пер. с англ. М., 1997. С. 26.

⁴⁵ История США. В 4 т. Под ред. Г.Н. Севастьянова. М., 1983. Т.2. С.364